

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASIGA OID QABUL QILINGAN MUHIM HUJJATLAR (2018-2021)**Raxmatullayev Abdulaziz Ismatulla o'g'li***Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiyasi siyosatini har tomonlama qo'llab - quvvatlashni nazarda tutadigan qonun hujjatlari haqida ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Migratsiya, ijtimoiy himoya yagona ryestri, Yagona milliy mehnat tizimi, labor-migration, ishchi viza.*

O'zbekiston Respublikasida tashqi mehnat migratsiyasiga bo'lgan e'tibor yaqin yillar ichida o'zining har tomonlama mukammal ko'rinishi bilan qonun hujjatlarida o'z aksini topmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi sohasiga oid asosiy hujjatlar 2018 - 2021 yillarda qabul qilindi.

Sohaga doir 12 ta muhim hujjatlar (O'zbekiston Respublikasining 1 ta Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 ta qarori, 1 ta farmoni, Vazirlar Mahkamasining 4 ta qarori) qabul qilinib, normativ - huquqiy baza yaratildi va yangi instrumentlar kiritildi¹⁰. Xususan:

2018 - yilda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi filiallarida xorijga ishga ketuvchi fuqarolarga temir yo'l va aviachiptalarni 20 foizlik chegirma asosida sotishga ixtisoslashtirilgan 14 ta maxsus kassalar tashkil etildi. 2019 - yil 31 - dekabr qadar temir yo'l va avia chipta xarid qilish harajatlarini qisman qoplash uchun 300 ming so'm miqdorda beg'araz moddiy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi¹¹.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining Janubiy Koreye Respublikasining Kvandju va Rossiya Federatsiyasining Moskva shaharlarida vakolatxonalarini tashkil etildi.

Yuridik shaxslarga O'zbekiston fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish, ularning kasbiy malakasini va xorijiy tillarni bilish darajasini tasdiqlash faoliyatlari bilan shug'ullanish huquqi berildi.

Mehnat vazirligi huzurida Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab - quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi.

Xorijda ishlayotgan fuqarolar faoliyatini mehnat stajiga qo'shish uchun to'lov miqdori bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yarim baravariga kamaytirildi.

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida [elektron manba] <https://lex.uz/docs/-5544371> (08.08.2021)

¹¹ 300 ming so'm miqdorda beg'araz to'lov bir yilda bir marta amalga oshiriladi [elektron manba] <http://old.mehnat.uz> (08.07.2020)

2019 – yilda mehnat migrantlariga ko'p kvartirali uylardan xonadonlar ajratish, 2 mln so'mgacha mikroqarz berish, ular hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofoti summasini qoplash uchun subsidiya taqdim etish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Mehnat vazirligida ishlab chiqilgan «Yagona milliy mehnat tizimi» axborot tizimi doirasida «labor – migration» dasturiy majmuasi yaratildi¹².

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, Vazirlar Mahkamasida Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari huquqlarini himoya qilish va qo'llab – quvvatlash masalalari departamenti tashkil etildi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining Rossiya Federatsiyasining Moskva shahridagi vakolatxonasining Sankt-Peterburg shahrida vakilligi tashkil etildi.

2020 – yilda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi joriy etildi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi viloyatlardagi hududiy filiallarining rahbarlari – viloyat hokimlarining tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha yordamchilari etib tayinlandi va ularga xorijiy ish beruvchi korxonalar bilan to'g'ridan – to'g'ri muzokaralar o'tkazish va shartnomalar imzolash vakolati berildi.

Mehnat migrantlarini O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda kasb – hunarga va xorijiy tillarga o'qitish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston hududida xorijiy davlatlarning o'quv markazlari tashkil etildi.

«Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimida ro'yxatga olingan va tashkillashtirilgan tarzda ishlash uchun xorijga chiqib ketayotgan shaxslarga 10 mln so'mgacha mikroqarzlilar berish tartibi joriy qilindi.

Tashkillashtirilgan tarzda xorijda ishlash o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlariga tenglashtirildi va ularga o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun belgilangan soliqlarni to'lash hamda pensiya miqdorini hisoblash tartibi qo'llanilishi belgilandi.

Chet davlatlarda murakkab moliyaviy ahvolga tushgan fuqarolarga to'lanadigan bir martalik moddiy yordam miqdori bazaviy hisoblash miqdorining bir barobaridan ikki barobarigacha ko'paytirildi.

Xorijda ishlab qaytib kelgan shaxslarni tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish maqsadida Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasidan bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobarigacha miqdorida subsidiya ajratilishi belgilandi.

Xorijdan qaytgan mehnat migrantlarini bandligini ta'minlash va ichki mehnat bozoriga reintegratsiya qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Agentlikning Moskva shahridagi vakolatxonasining Yekaterinburg, Novosibirsk, Ufa va Samara shaharlaridagi vakillari faoliyati tashkil etilgan.

12 «Ягона миллий меҳнат тизими» ахборот тизими доирасида ишга туширилган «labor-migration» дастурий мажмуа тўғрисида [elektron manba] <https://labormigration.uz/main/about> (07.04.2022)

Xorijga tashkiliy tartibda ishlash uchun ketayotgan fuqarolarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 - yil 30 iyuldagi "Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5205-son qarori qabul qilindi¹³.

Unga ko'ra, endilikda «labor-migration» dasturiy majmuasida ro'yxatdan o'tgan, kasb-hunar yoki xorijiy tillarga o'qigan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarga Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan:

- xorijiy tillar yoki kasb bo'yicha malaka imtihonlarini topshirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravarigacha miqdorda;

- yo'l chiptasini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun – bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha miqdorda;

- rivojlangan davlatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirishga "ishchi viza"ni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha miqdorda kompensatsiya to'lanadi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasida bo'lgan davrida jarohat olgan, baxtsiz hodisaga duch kelgan, o'tkir yoki og'ir kasalga chalingan fuqarolarni, shu jumladan ularning voyaga yetmagan farzandlarini O'zbekiston Respublikasiga olib kelish bilan bog'liq xarajatlari, shuningdek, ushbu fuqarolarni tibbiyot xodini kuzatuv ostida qaytarishda tibbiyot xodimining xizmat safari xarajatlari Jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

Tasdiqlangan yo'nalishlar bo'yicha 2021 – yilga mo'ljallangan prognoz parametrlari doirasida ham muayyan natijalarga erishildi:

a) xorijga ishlash uchun ketmoqchi bo'lgan fuqarolarni kasbga

va chet tillariga o'qitish bo'yicha Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida 15 ta "Ishga marhamat" monomarkazi hamda 59 ta Kasb-hunarga o'qitish markazi faoliyati yo'lga qo'yildi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 13 ta kollej va 13 ta texnikum bazasida qisqa muddatli kasb-hunarga va chet tillariga o'qitish kurslari tashkil etildi;

qurilish sohasida ishlash uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida hududlarda 13 ta markaz ishga tushirildi;

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki "Yangi O'zbekiston" davrida amalga oshirilayotgan islohotlar orasida tashqi mehnat migratsiyasiga oid qabul qilingan qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasining chet - elda mehnat faoliyatini amalga oshirib kelayotgan fuqarolarining har tomonlama huquqlarini himoyalab, ularni har tomonlama qo'llab - quvvatlaydi va albatta, ularning mehnat faoliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

¹³ O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori: xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida [elektron manba] <https://lex.uz/uz/docs/-5544371> (07.04.2022)

FOYDALANILGAN MANBAALAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida [elektron manba] <https://lex.uz/docs/-5544371> (08.08.2021)

2. 300 ming so'm miqdorda beg'araz to'lov bir yilda bir marta amalga oshiriladi [elektron manba] <http://old.mehnat.uz> (08.07.2020)

3. «Ягона миллий меҳнат тизими» ахборот тизими доирасида ишга туширилган «labor-migration» дастурий мажмуа тўғрисида [elektron manba] <https://labormigration.uz/main/about> (07.04.2022)

4. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori: xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida [elektron manba] <https://lex.uz/uz/docs/-5544371> (07.04.2022)